

NASOIM UL-MUHABBAT” DAGI ARABIY ISM SO‘Z TURKUMI

“Yangi asr” universiteti magistranti

Sayyidov Najmuddin

“Nasoimu-l-muhabbat” (“Sevgi shabadalari”) 1495-96 yillarda Abdurahmon Jomiyining “Nafahotu-l-uns” asari ta’sirlanib, yangi mustaqil asar bo‘lib, Alisher Navoiyning ham nasrda ijod qilish qobiliyati, ham tarjimon sifatidagi iste’dodini namoyish qiluvchi asardir.

Ma’lumki, Jomiy o‘z davrining eng ma’lumotli kishisi sifatida sufizm ta’limotidan yaxshi xabardor bo‘lgan, bu ta’limotni zamonasidagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayot hodisalari bilan bog‘lashga harakat qilgan edi. Navoiy ustozidan tasavvuf tarixiga oid asar yaratishni iltimos qiladi. Jomiy bu ishni amalga oshirishga mammuniyat bilan kirishadi va “Nafahotul-uns” asarini tezda yozib tugatadi. Ammo turkiygo‘y o‘quvchilar undan foydalana olmas edilar. Bu haqda Navoiy shunday deydi: “Ul kitob (“Nafahot ul-uns”) haloyiq orasida mashhur va o‘qumoq va bitimagi shofe’ bo‘ldi... Doim oshufta xotirg‘a kelur erdi va parishon xayolg‘a evrulur erdikim, bu kitob alfozi forsiydur, arabiyg‘a payvasta va iboratg‘a ishorat ahli tiliga vobasta va ul tillar vuqufidin bahravarlar va ul iborat va ishoratdin boxabarlar ul alfozdin o‘z qobiliyatları xudriyda va ishtig‘ollari muqobalasida naf^o topalar va fayz elturlar.

Asar kirish qism va 750 shayx hayotiga oid ma’lumotdan iborat. Kirish qismida Navoiy Jomiy asarining mohiyati, yozilgan yili, o‘zining qo‘shgan yangiliklaridan o‘quvchini to‘la xabardor qiladi. U tarjimani Farididdin Attor, Shayx Farid Shakarganj kabilarning shu tipdagи kitoblaridan olingan qo‘shimcha ma’lumotlar bilan boyitdi va unga “Nasoimul-muhabbat min shamoyimul-futuvvat” (“Ulug‘lik xushbo‘yliklarini taratuvchi sevgi shabbodalari”) deb nom qo‘ydi.¹

¹ Ўзбек адабиёти тарихи. 2-том. –Т.: Фан. 1978. –Б.449.

Maqolada arabizmlar bilan bog‘liq bo‘lgani uchun tahlil arab morfologiysi tasnifi asosida olib borildi. Ya’ni Navoiy asarida uchraydigan arabiylar so‘zlarni ham arab nahvchilarini tasnifi asosida uchta katta guruhga bo‘lib o‘rganamiz:

Arab tilida ism turkumiga ot, sifat, son, olmosh, ravish, masdar (harakat nomi) va sifatdosh kabi mustaqil ma’noni anglatgan so‘zlar kiradi. Bularga “Nasoimul-muhabbat”da qo‘llangan quyidagi so‘zlarni misol qilish mumkin: kitob, hazrat, ahl, vuquf, naf’, arabiylar, mahrum, mutaammil, doxil.

Arab tilida ismlar jins, son, kelishik va holat kategoriyalari ega. “Nasoimul muhabbat” asrida arab manbalaridan iqtibos qilingan ibora va jumlalar, shuningdek, shaxslarning ismlari va ularga berilgan mashhur sifatlarda arabcha shakl saqlanib qolgan, masalan:

“Ammo ba’d: mundoq arz qilur jahl vodiysining marhalapaymoi Alisher mulaqqab bin-Navoiykim, sekkiz yuz sakson birda bu bebizoati adimul-istitoat hazrati ustodiy va sayidiy va sanadiy va maxdumiy va shayxul-islomiy mavlono Nurul-millati vaddin Abdurahmon Jomiy xizmatlarida “Nafahotul-uns min hazarotil-quds” kitobi va jam’i tartibining boisi o‘ldum. “Shayxul-mashoyix shayx Abu Said Xarroz erdikim, alarni mashoyixi qamarus-sufiya debturlar va shayxulislom muqarrabi hazrati boiy Xoja Abdulloh Ansoriy mashoyix tabaqotinkim, bitibturlar, jamii avliyouollohdinkim, zikr qilibturlar.” Mazkur jumla tarkibida 29 ta so‘z bor, ulardan arabchasi 24 tadir.

Bu jumlalardagi “adimu-l-istitoat”, “shayxu-l-islomiy”, “shayxulislom” – islom shayxi, “nuru-l-millati va-d-din” – millat va din nuri, “Nafahotul-uns min hazarotil-quds” – , “Shayxul-mashoyix”, “qamarus-sufiya” – “sufiylik (osmonining) oyi”, “Abdulloh” – Allohning quli, “avliyouolloh” – Alohning valiyilarini iboralarida aniqlik artikel izofa birikmasi tarkibida saqlanib qolgan.

Boshqa hollarda arabiylar so‘zlar turkiy tilga o‘zlashgani va turkiy matnda kelgani uchun shu tilda mavjud bo‘lgan kategoriyalarga moslashib ketgan. Masalan, turkiy tillarda holat kategoriysi mavjud emas, asarda aniq holatdagi ismlar uchramaydi.

Ma'lumki, odam, jonivor, buyum, ashyo kabi narsalarni bildiradigan so'zlarga ot deyiladi. Yuqorida aytilganidek, arab tilida ismlar jins, son, kelishik va holat kategoriyalariiga ega. Arab tilida otning jinsi o'zgarmas bo'lib, u yo muzakkarr yoki muannas jinsda bo'ladi². Shuning uchun ham fors va turkiy tillarda jins kategoriysi mavjud bo'lmasa ham, arabcha so'zlar yozuvda o'zining muzakkarr va muannas shaklini saqlagan holda o'zlashgan, lekin u grammatik kategoriya sifatida kuchga ega emas.

Arab tilidagi ot turkumi kimni anglatib kelganiga qarab oqil va g'ayri oqil turlarga bo'linadi. Oqilni anglatuvchi otlarga odamni anglatgan otlar, g'ayri oqilga esa odamdan boshqasini anglatgan otlar kiradi. "Nasoim ul-muhabbat"da bunday otlarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan:

Oqil otlar: shayx, amir, imom, inson, murid, sulton, qavm, sohib,
qozi, notiq, oshiq.

G'ayri oqil otlar: hilol, olam, surat, sarvat, fursat, kitob, safar.

Otlar turdosh yoki atoqli otlarga bo'linadi.

Mahmud Zamaxshariyning tasnifi bo'yicha "turdosh otlar ikki xil bo'ladi.:

1. "Odam" va "otliq" kabi konkret ma'noni anglatuvchi ismlar;

2. "Ilm" va "tushunarli" kabi abstrakt ma'noni anglatuvchi ismlar"³. Mana shu tasnif bo'yicha "Nasoimul-muhabbat" asaridan misollar keltiramiz:

konkret ma'noni anglatuvchi otlar:

Maxluq, samo, surat, kitob, abvob, olim.

abstrakt ma'noni anglatuvchi otlar:

aql, ilm, ne'mat, xizmat, hadis, mazhab, majlis, taassuf, rahmat.

Atoqli ot bir shaxs, jonivor yoki narsaning nomini bildirgan otdir..

"Nasoyim ul-muhabbat"da kishilarning ismi, laqabi, geografik nomlar kabi ko'plab atoqli otlar uchraydi:

Oqil atoqli otlar: Shayx Farididdin Attor, Shayxul-mashoyix shayx Abu Said

² К.: Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. –М.: Изд-во восточной литературы. 1963. –С. 116-120.;

³ Носирова М. Махмуд Замахшарийнинг "Ал-Унмузаж фи-н-нахв" рисоласи. –Т.: ТошДШИ. 2005. –Б. 108.

Xarroz, Shayx Abulabbos Omiliy, shayx Ibrohim Ojariy, Shayx Abulhasan, Shayx Banon va b.

G‘ayri oqil atoqli otlar: Misr, Axmim, Mag‘rib, Bag‘dod, Qirvon, Makka, Isfag‘on va b.

Xulosa shuki, arab va o‘zbek tillari bir-biridan morfologik jihatdan keskin farq qiladi. Arab tili flektiv tillarga, o‘zbek tili agglyutinativ tillarga mansub. Arab tilining o‘zagi undosh tovushlardan iborat bo‘lib, undan yangi so‘zlar va so‘z formalari o‘zak ichidagi va oxiridagi unlilargi o‘zgartirish bilan yasaladi. Arab tilining mazkur xususiyati so‘zning o‘ziga xos shakllari bilan ifodalanishiga sabab bo‘lgan. Arab tilidagi so‘z vaznlarining yaqqol ko‘zga tashlanadiganlari bor bo‘lib, o‘zbek tilidagi, jumladan, Navoiy tilidagi o‘zlashmalarining arabchalarini shularga qarab bilish mumkin.